

ISLOMIY MOLIYA NIMA? ISLOMIY MOLIYANI O'ZBEKISTONDA QANDAY RIVOJLANTIRISH MUMKIN?

**Boymurotov Sanjarbek**

*Tadbirkorlik va Boshqaruv fakulteti Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

**Hafizov Sarvar**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti quyi kurslar kafedrasi o'qituvchisi  
Denov Tadbirkorlik Va Pedagogika Instituti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Islomiy moliyani nimaligi va qanday ishlashi haqida yozilgan. Islomiy moliyani O'zbekistonda rivojlantirish yo'llari va afzal tomonlari.

**Kalit so'zlar:** Islomiy moliya, foiz, g'arar, maysar, murobaha, mushoraka, mudoraba, Robbul mol, mudorib.

Biror tizimni yo'lga qo'yishdan oldin eng avval u tizim qanday ishlaydi? Tizimning asosiy maqsadi nima?...kabi savollarga javob berishimiz kerak.

Islomiy moliya nima?

Islomiy moliya bu –An'anaviy moliya tizimining muqobili hisoblanadi. Bu tizim an'anaviy moliya tizimining yaxshilangan varyanti desak ham bo'ladi. Islomiy moliya avvalo Quroni Karim, keyin sunnat, so'ngra islom ulamolari kitobi, ularda ham bo'lmasa ijmo (Islom ulamolari kengashib qaror qabul qilishi) qoidalari orqali ishlaydigan moliyadir. "Islomiy moliya - islom savdo qonunlari bilan tartibga solinadigan dinga asoslangan moliyaviy tizim, islom banki operatsiyalari an'anaviy bank xizmatlaridan farq qiladi, garchi ikkala bank turi ham mijozlarning o'xshash ehtiyojlarini qondirsa ham. Mijozlarning ehtiyojlarini moliyalashtirishda islomiy banklar moliyalashtirishning savdo yoki foyda va zararni taqsimlash usullaridan foydalanadilar, islomiy bank ishi 20-asrning oxirgi choragida butun dunyo musulmonlarining ehtiyojlarini qondirish uchun boshlangan, garchi u faqat musulmonlar bilan cheklanmagan bo'lsa ham. U butun dunyo bo'ylab ulkan o'sish va kengayishni ko'rsatdi."

Yuqorida aytib o'tilganidek islomiy moliya tizimi ba'zi jihatlarida an'anaviy moliya tizimidan farq qiladi bular quyidagilar:

1. Foiz (riba) Eng kuchli islom aqidalaridan biri shundaki, foiz undirish yoki olish qat'iy man etiladi. Boylik qiziqish hosil qilish uchun ishlatilmasligi kerak. Bu uchun berilgan asoslar orasida boyliklarning ozchilik qo'lida kontsentratsiyasining istalmaganligi va boy va kambag'al o'rtasidagi tafovutga mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlar haqidagi xavotirlar kiradi.

"Alloh sudxo'rlini (foydasini) yo'q qiladi va sadaqa (beruvchilarga boylik) larni ziyoda etadi. Allah har qanday (sudho'rlikni halol deb biluvchi) kofirni va (uni davom ettiruvchi) gunohkorni yoqtirmaydi" ("Baqara" surasi, 276-oyat)

2.G'arar (xatar)bu savdodagi noaniqlik ya'ni qayerda qanday va nimani savdo qilishdagi noaniqlik. Bunday savdo ham islomiy moliyada man qilingan.

3.Maysar ya'ni qimor deagani. Bunda 2 yoki 3 ishtirokchi mavjudligi o'rta pul tikiladi hali nomalum bo'lgan ish uchun, bunda 1 kishi koproq foyda olishi yoki pul yo'qotishi mumkin.

Islom moliyasining o'ziga xos xususiyatlari ham bor bular quyidagilar:

1.Murobaha-bu savdo sotiqning o'ziga hos turi bolib sotuvchi haridorga mahsulot tannarxini va ustama narhini aytishi zarur aytmasa, "Musavama" deb ataluvchi bitim bo'ladi.

2.Mushoraka-o'zaro sherikchilik bo'lib bunda barcha sarmoyadorlar bir xil qatnashishadi foyda ham zarar ham teng bolinadi. Yani hech kim ko'p zararga kirib qolmaydi.

3.Mudoraba-bunda bir kishi faqat sarmoya kiritadi yana bir kishi esa ish yuritadi . Sarmoyador "Robbul mol ", ish yurituvchi esa "Mudorib" deyiladi.

Robbul mol biznes boshqarishda ishtirok etmaydi.

Islom moliyasini O'zbekistonda qanday rivojlantirish mumkin?

Yuqoridagi savolga javob berishdan oldin bitta savol qo'ysak nega islomiy moliyani O'zbekistonda rivojlantirish kerak?

O'zbekiston aholisining 95% (2015yil ma'lumoti)qismi musulmonligi bunga turtki bo'ladi. Bu aholining juda kop qismi o'zlarining diniy qarashlari tufayli an'anaviy banklardan faydalanmaydi degani. Bu esa o'z navbatida aholida juda kop miqdordagi sarmoyaning shunchaki ishlatilmay qolishiga olib keladi. Bunaqa sabablar bizda talaygina masalan bir kishi biznes uchun an'anaviy bankdan kredit oldi keyin esa inqirozga uchradi,endi nima bo'ladi ,endi bank undan kreditni qay tarzda bo'lsa ham undirib oladi natijada taqdbirkor o'zini qayta tiklay olmaydi. Islom banklari bu vaziyatda kreditor emas sarmoyador bo'lib xizmat qiladi ya'ni o'zining mutaxasislarini bunga jalb qiladi ,agar shunday holatda ham inqroz yuzaga kelsa zarar bank va tadbirkor o'rtasida teng bo'linadi natijada tadbirkor o'zini tiklashi oson bo'ladi.

Albatta savol tug'iladi bu bankdan faqat musulmonlar foydalanadimi?

Yo'q unday emas ,birgina misol hozirda Angliyaning o'zida 6 ta islomiy bank mavjud va undan hamma birday foydalanadi. Nafaqat Angliya balki Yaponiya,AQSH davlatlarida ham islomiy banklar mavjud. Bu davlatlarning bu kabi banklardan foydalanishi uning qanchalik foydali ekaniga dalolat qiladi. Hozirning o'zida islomiy banklar aktivlari 4 trln dollarga yetgan.

Agar bu tizimga o'tmoqchi bo'lsak ham biz bu tizimga birdan o'tib ketolmaymiz bizda eng kata muammo bu sohada kadr yetishmovchiligi hisoblanadi. Buning 2 ta yo'lini ko'rib chiqaylik:

1. OTM da "islomiy moliya" bo'yicha to'liq bitta fan shakllantirilishi kerak. Albatta buning uchun o'qituvchi kadrlar chet eldan jalb qilinadi yoki uzoq vaqt (kamida 2 yil) ketsa ham o'zimizda kadrlar tayyorlanadi.

2. Moliya universitetlarida islomdagi moliya haqida tushunchalar berib borish yoki Islom universitetlarida Moliya darslarining olib borilishi.

Bu ikkala yo'l ham oson yo'l hisoblanmaydi.

Islomiy banklar tashkil qilinishi juda kop miqdordagi sarmoyaning ishlatilmay qolishining oldini oladi. Albatta bu tizim murakkab tuyuladi lekin unday emas. Yangi narsalar uni ishlatib ko'rgunimizcha murakkab tuyuladi. Dunyo miqyosida islomiy moliya tizimi rivojlanib bormoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1."Fundamental of Islamic Finance" Dr Muhammad Hanif.
- 2."Principles of Islamic Accounting" Nobil Baydoun.
- 3."AlQuranuz" sayti.
- 4."ISLOM.UZ" sayti.